1980-yillarda davlatlararo narkotik moddalar savdosidan olingan daromadlar va boshqa jinoyatlardan tushgan mablagʻlarni musodara qilish hamda ular bilan bogʻliq masalalarga oid qoidalar milliy qonunchilik doirasida ishlab chiqila boshladi. Keyingi oʻn yillikning ikkinchi yarmida esa qonun ijrosini taʼminlash boʻyicha xalqaro hamkorlikka alohida eʼtibor qaratildi [10, 108-b.]. 1986-yilning iyun oyida konvensiyaning dastlabki loyihasi eʼlon qilindi. Unda ishtirokchi davlatlar milliy qonunchiligining tafsilotlari, sudlari tomonidan chiqarilishi lozim boʻlgan qarorlarning turlari, ushbu qarorlarning huquqiy oqibatlari va amal qilish muddati kabi jihatlar yoritilgan edi [9, 108-b.].

1988-yil 20-dekabrda "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni gʻayriqonuniy ravishda muomalaga kiritishga qarshi kurashish toʻgʻrisida"gi BMT konvensiyasi qabul qilindi. Mazkur konvensiya narkotik moddalarni sotishdan olingan daromadlarni musodara qilish boʻyicha umumiy qoidalarni belgilaydi. Konvensiyada har bir ishtirokchi davlat tomonidan huquqbuzarlik natijasida olingan daromadlar, mol-mulklar hamda jinoyat sodir etishda foydalanilgan yoki foydalanish uchun moʻljallangan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, materiallar va jihozlarni musodara qilish choralari koʻrilishi lozimligi nazarda tutilgan. Ushbu konvensiyaning 5-moddasi 4-bandi "a" kichik bandida qayd etilishicha, ishtirokchi davlatlarning vakolatli organi tomonidan musodara qilish boʻyicha soʻrov yuborilgan taqdirda, agar bunday qaror chiqarilgan boʻlsa, uning ijrosi amalga oshirilishi shart.

Konvensiyada belgilangan qoidalardan kelib chiqib, xorijiy davlat hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish masalasiga toʻxtaladigan boʻlsak, jinoyat sodir etishda foydalanilgan yoki foydalanish uchun moʻljallangan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, materiallar va jihozlar hamda jinoyat yoʻli bilan orttirilgan daromad va mol-mulkni musodara qilish boʻyicha ishtirokchi davlatlar oʻrtasida hamkorlik amalga oshiriladi. Jumladan, vakolatli davlat organlari oʻz sudlari tomonidan chiqarilgan qarorga asosan, mol-mulkni musodara qilish boʻyicha qarorning

ijrosini ta’minlash choralarini ko‘radi. Xorijiy davlat hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish bo‘yicha vakolatli davlat organlari mol-mulk joylashgan davlat sudidan protsessual qonunchilikka muvofiq, hukm (qaror)ni tan olish va tasdiqlashni talab qilishi mumkin [9, 114-115-b].

BMTning 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi” konvensiyasining 2-moddasi “g” bandida “musodara qilish” deganda, sud yoki boshqa vakolatli organning qarori bilan mol-mulkdan uzil-kesil mahrum qilish tushunilishi to‘g‘risidagi qoidalar belgilangan [10]. Xususan, ishtirokchi davlatlar jinoiy yo‘l bilan olingan daromad, mol-mulk va boshqa vositalarni musodara qilish bo‘yicha sud yoki vakolatli organ tomonidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini davlatlararo hamkorlik asosida amalga oshiradi (13-modda) [10]. Konvensiyaning 14-moddasida esa ishtirokchi davlatlar tomonidan yuborilgan so‘rov ijro etilayotganda, ijro etuvchi davlat o‘z milliy qonunchiligida belgilangan darajada harakat qilishi belgilangan [10].

S. Rouzning ta’kidlashicha, ushbu konvensiya xalqaro prokurorlar va sudyalardan farqli o‘laroq, ichki qonunchilikni amalga oshirish va ularni ijro etish bo‘yicha davlatlararo hamkorlikka asoslanadi [11].

2003-yil 31-oktabrda qabul qilingan BMTning “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi konvensiyasining 54-moddasi 1-bandi “a” kichik bandida ishtirokchi davlatlar o‘z vakolatli organlariga boshqa ishtirokchi davlat sudlari tomonidan chiqarilgan musodara qilish to‘g‘risidagi qarorlarni ijro etish uchun zarur choralar ko‘rish vakolatini beradi [12]. Frensis Desterbek va Delfin Shantslar mol-mulkni musodara qilish bo‘yicha davlatlar o‘rtasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirishdan oldin konvensiya doirasida muzlatish va olib qo‘yish kabi tizimlarni yaratish zarurligini ta’kidlaganlar [13]. A. Volevodzning fikriga ko‘ra, “huquqiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi qonun xorijiy davlat sudlarining mulkni musodara qilish to‘g‘risidagi hukm (qaror)larini ijro etish imkoniyatini nazarda tutadi” [14]. A. Urusov esa “musodara qilish uchun yangi ish qo‘zg‘atishdan ko‘ra, odatda, xorijiy davlat sud qarorlarini ijro etish afzalroqdir”, deb ta’kidlagan [15].

Mazkur sohada davlatlararo xalqaro hamkorlik ularning sudlari tomonidan musodara qilish to‘g‘risida chiqarilgan qarorlarni tan olish va ijro etish imkonini beradi. Shu bilan birga, hukm (qaror) aniq va yakuniy (res judicata), ya’ni qonuniy kuchga kirgan bo‘lishi lozim. Jinoiy yo‘l bilan olingan daromad, mol-mulk yoki boshqa vositalarni musodara qilish tartibiga oid qoidalar Albaniya jinoyat kodeksining 36-moddasi [16], Germaniya jinoyat kodeksining 73-moddasi [17] va Polsha jinoyat kodeksining 44-moddasida [18] keltirilgan.

Xorijiy davlat sud hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish sohasida davlatlararo hamkorlikni amalga oshirishning asosiy sabablaridan biri sifatida davlatlarning milliy manfaatlarini himoya qilishga intilishi, jumladan, shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini o‘z hududidan tashqarida ham himoya qilish istagini ko‘rsatish mumkin. Har bir suveren davlat o‘z hududidagi nizolar bo‘yicha xorijiy hukm (qaror)larni tan olish va ijro etish imkoniyati, mezonlari, chegaralari hamda tartibini mustaqil ravishda belgilash huquqiga ega. XX asr oxirlariga kelib, mazkur sohani tartibga soluvchi mintaqaviy shartnomalarning roli ortib borayotganligi qayd etilishi lozim. Xususan, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (keyingi o‘rinlarda – MDH) doirasida 1993-yil 22-yanvarda “Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to‘g‘risida”gi konvensiya (keyingi o‘rinlarda – Minsk konvensiyasi) qabul qilingan [19].

B. Voljenkinaning ta’kidlashicha, xalqaro shartnomalarni tuzishda davlatlar huquqiy yordam turlari va ularni amalga oshirish tartibini mustaqil ravishda belgilaydi [20].

M.Davidova esa "bir davlat sudlari tomonidan boshqa davlat sudlari yoki vakolatli organlarining muayyan bir protsessual harakatlar yuzasidan soʻrovlarini amalga oshirishi keng maʼnoda huquqiy yordam koʻrsatish", deya oʻz fikrlarini bildirib oʻtgan [21, 18-b.]. F. Fayziyevning fikricha, jinoyat ishlari boʻyicha sud hukmlarini ijro etish huquqiy yordam koʻrsatish toʻgʻrisidagi shartnomalarda belgilab qoʻyilgan [22, 23-b.].

Mazkur konvensiyaning 6-moddasida "... hukmni ijro etish uchun topshirish" [19] va "...hukmlarning fuqaroviy daʼvoga oid qismi" [19] hamda 51-moddasi 1-qismi "b" bandida "jinoyat ishlari boʻyicha sudlarning zararni qoplash toʻgʻrisidagi qarorlari"ni [19] tan olish va ijroga qaratish boʻyicha ishtirokchi davlatlar oʻzaro hamkorlikni amalga oshirishi belgilangan.

Minsk konvensiyasi MDHga aʼzo davlatlarning sudlari tomonidan chiqarilgan qarorlarni tan olish va ijro etishni taʼminlash uchun huquqiy asos yaratdi, deyish mumkin. O.V. Panyushkinaning taʼkidlashicha, Minsk konvensiyasining asosiy kamchiliklaridan biri unga aʼzo davlatlarning jinoyat sudlari tomonidan chiqarilgan hukm (qaror)larni tan olishdagi muammolar edi [23].

MDH doirasida 2002-yil 7-oktabrda "Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar boʻyicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar toʻgʻrisida"gi konvensiya (keyingi oʻrinlarda – Kishinev konvensiyasi) qabul qilindi [24]. Minsk konvensiyasida yuzaga kelgan kamchiliklar hisobga olinib, Kishinev konvensiyasining 6-moddasiga "...hukmlarni tan olish va ijro etish yoʻli bilan oʻzaro huquqiy yordam koʻrsatadilar", degan aniq normalar kiritildi [24].

Shuningdek, Minsk konvensiyasidan farqli oʻlaroq, Kishinev konvensiyasida ishtirokchi davlatlarning jinoyat sudlari tomonidan chiqarilgan hukmlarni tan olish va ijro etish boʻyicha yangi normalar belgilandi. Xususan, mazkur konvensiyada zararni qoplash, jarimalarni undirish hamda musodara qilish masalalari (54-modda, "b" bandi) alohida koʻrsatildi [24]. Ushbu qoidalarning kiritilishi sudlanuvchilarga jabrlanuvchilarga jinoyat oqibatida yetkazilgan zararni qoplash hamda soʻragan davlat sudining qonuniy kuchga kirgan hukmi asosida musodara qilish jarayonini amalga oshirish imkonini beradi.

Kishinev konvensiyasining qabul qilinishidan asosiy maqsad jinoyat ishlari boʻyicha huquqiy yordam koʻrsatishni tartibga solishda davlatlararo xalqaro hamkorlikni amalga oshirish edi. Xususan, ishtirokchi davlatlarning jinoyat ishlari boʻyicha sudlari tomonidan chiqarilgan hukmlarni tan olish va ijro etishga oid qoidalarni belgilab berdi. Konvensiyaning 110- va 111-moddalariga koʻra, hukmlarni tan olish va ijro etish quyidagi asoslar va tartibda amalga oshirilishi belgilangan [24].

Kishinev konvensiyasi hukmlarni tan olish va ijro etishni rad etish boʻyicha qoidalarni ham oʻz ichiga oladi. Jumladan, sud qarorining davlat suvereniteti yoki xavfsizligiga zarar yetkazishi, shuningdek, qonunchilikka zid boʻlishi (21-modda) [24] holatlarida rad etish mumkin. Shuningdek, hukm sirtdan chiqarilgan boʻlsa; shaxs sodir etgan qilmishi uchun jazolangan, oqlangan yoki jinoyat ishi qonunda belgilangan tartibda tugatilgan boʻlsa; sodir etilgan jinoyat boshqa davlat qonunchiligida jinoyat sifatida tan olinmasa; yoki shaxsni irqi, jinsi, diniy eʼtiqodi, etnik mansubligi yoki siyosiy qarashlari sababli taʼqib qilish holatlarida ham hukmni tan olish rad etilishi mumkin (112-modda) [24].

Yuqoridagi qoidalar xorijiy davlat sud hukmlarini tan olish va ijro etishda xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda har bir davlat hududida hukm (qaror)larning adolatsiz qoʻllanishining oldini olish, inson huquqlarini himoya qilish hamda davlat suverenitetini hurmat qilish zarurligini taʼkidlaydi.

Shuningdek, davlatlar oʻrtasidagi ikki tomonlama huquqiy yordam koʻrsatish toʻgʻrisidagi shartnomalarga nazar soladigan boʻlsak, xorijiy davlat sud hukmlarini tan olish

va ijro etish boʻyicha qoidalarni koʻrishimiz mumkin. Bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasi jinoiy ishlar boʻyicha xorijiy davlat sudlari hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish boʻyicha imzolagan shartnomalarini quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1) ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni jazoni oʻtashni davom ettirishni tartibga soluvchi shartnomalar va 2) huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar boʻyicha shartnomalar.

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni jazoni oʻtashni davom ettirishni tartibga soluvchi shartnomalarga e'tibor qaratadigan boʻlsak, masalan, Oʻzbekiston Respublikasi va Ozarbayjon Respublikasi oʻrtasida 1997-yil 18-iyundagi [25], shuningdek, Qozogʻiston Respublikasi bilan 2021-yil 6-dekabrdagi [26] shartnomalarda belgilangan qoidalarga koʻra, ushbu shartnomalar doirasida xorijiy davlat sudi tomonidan chiqarilgan hukmlarni tan olish va ijro etish davlatlararo oʻzaro rozilik asosida quyidagi shartlarga muvofiq amalga oshiriladi:

– shaxs fuqarosi boʻlsa yoki oʻsha davlatda doimiy yashash joyiga ega boʻlsa;

– mahkum yoki uning qonuniy vakili ariza bergan boʻlsa;

– hukm qonuniy kuchga kirgan boʻlsa;

– qilmish tan oluvchi davlat qonunchiligiga muvofiq jinoyat deb topilgan boʻlsa;

– jinoyat natijasida yetkazilgan zarar undirilgan boʻlishi yoki jazoga kamida Ozarbayjon Respublikasi bilan olti oy, Qozogʻiston Respublikasi bilan esa kamida bir yil muddat tayinlangan boʻlsa.

Jinoyat ishlari boʻyicha xorijiy davlat sudlari tomonidan jinoyat sodir etish natijasida yetkazilgan zararlarni qoplashga oid hukmlarni tan olish va ijro etish tartiblari Oʻzbekiston Respublikasining huquqiy yordam va huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro shartnomalarida belgilangan. Xususan, “Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar boʻyicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar toʻgʻrisida”gi, 1997-yil 2-iyunda Oʻzbekiston Respublikasi va Qozogʻiston Respublikasi oʻrtasida imzolangan shartnomaning 52-moddasi 1-qismi “b” bandida [27] hamda Chexiya Respublikasi bilan 2002-yil 18-yanvarda tuzilgan shartnomaning 50-moddasi 1-qismi 2-bandida [28] ushbu tartibga oid qoidalar koʻrsatilgan.

Rossiyalik olim I. Lukashukning fikriga koʻra, xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipiga muvofiq, davlatlar qonunlar va boshqa qoidalarni qabul qilish kabi suveren huquqlarini amalga oshirayotganda, oʻz xalqaro huquqiy majburiyatlarini hisobga olishi shart [29]. Nemis olimlari Karolina fon Gall va Liza Kuyuslat ta'kidlaganidek, xalqaro shartnoma normalari tegishli qonunlar orqali implementatsiya qilinib, oddiy qonun maqomini oladi. Shundan keyin ular Germaniya sudlari tomonidan ichki huquqning tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi va qoʻllanadi [30]. Oʻzbekistonlik olim G. Yuldashevaning qayd etishicha, “Oʻzbekistonning xalqaro huquqiy majburiyatlariga soʻzsiz rioya qilish mamlakatimiz sudlarining eng muhim vazifalaridan biridir” [31, 41-b.].

Bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasi ham xalqaro shartnomalarning ishtirokchisi sifatida ushbu jarayonlardan chetda qolmay, xalqaro shartnomalar doirasida olgan majburiyatlarini bajarishda xalqaro shartnomalarga belgilangan qoidalarni oʻz milliy qonunchiligida aks ettirib kelmoqda. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 66-bobida xorijiy davlat sudining hukmi (qarori)ni tan olish va ijroga qaratish boʻyicha normalar belgilangan. Jumladan, mazkur kodeksning 610-moddasiga koʻra, faqatgina xorijiy davlat jinoyat ishlari boʻyicha sudi tomonidan ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan yoki ruhiy holatining buzilishi natijasida xorijiy davlat sudi tomonidan tibbiy majburlov chorasi qoʻllashga oid qarorini tan olish va ijro etish boʻyicha xalqaro hamkorlik amalga oshirilishi belgilangan. Ushbu qoidalar faqat xorijiy davlat jinoyat sudining ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan hukmlarini tan olish

va ijroga qaratish bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga oladi.

**Tadqiqot natijalari tahlili**

Yuqorida tahlil qilingan universal xalqaro shartnomalarga muvofiq, xorijiy davlat sudlarining hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish bo'yicha belgilangan normalardan kelib chiqib, jinoiy yo'l bilan olingan daromad, mol-mulk va boshqa materiallarni (giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni) musodara qilishning ikkita usulini ajratish mumkin.

Birinchi usul – ishtirokchi davlat sudidan qaror olish: so'ragan tomon (yordam so'ragan davlat) so'ralayotgan tomon (yordam ko'rsatuvchi davlat) sudiga ushbu davlat qonunchiligida talab etilgan barcha zarur hujjatlar va dalillarni taqdim etgan holda, musodara qilish bo'yicha hukm (qaror) olish uchun murojaat qiladi. Qaror chiqarilgach, uning ijrosini ta'minlash maqsadida so'ralayotgan davlatning vakolatli organlariga murojaat qilinadi.

Ikkinchi usul – ishtirokchi davlat sudining qarorini ijroga qaratish: so'ragan tomon sudlari muayyan jinoyat ishi bo'yicha jinoiy yo'l bilan olingan daromad, mol-mulk hamda boshqa materiallarni (masalan, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni) musodara qilish to'g'risida qaror chiqaradi. Agar mazkur qarorda ko'rsatilgan aktivlar so'ralayotgan davlat hududida joylashgan bo'lsa, so'ragan tomon so'ralayotgan davlatning vakolatli organlariga ushbu qarorni ijro etish uchun so'rov yuboradi. Ba'zi hollarda so'ralayotgan davlat sudlari mazkur qarorni tan olish masalasini milliy qonunchiligida belgilangan qoidalarga muvofiq tekshirish huquqiga ega bo'lishi mumkin.

Ikkala usulda ham so'ragan va so'ralayotgan tomonlarning milliy qonunlariga rioya qilish talab qilinadi. Xorijiy davlat hukm (qaror)larini tan olish va ijro qilish bo'yicha davlatlararo so'rovlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida davlatlar o'rtasidagi o'rnatilgan xalqaro hamkorlik asosiy rol o'ynaydi.

Shuningdek, xorijiy davlat sudlarining hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish bo'yicha mintaqaviy va ikki tomonlama xalqaro shartnomalarda protsessual qoidalar belgilanganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan:

*Birinchidan,* hukmni tan olish va ijro etish bo'yicha iltimosnoma taqdim etiladi. Mazkur iltimosnoma vakolatli sudlar tomonidan milliy qonunchilik normalariga muvofiq ko'rib chiqiladi.

*Ikkinchidan,* hukmning qonuniy kuchga kirganligini tasdiqlovchi hujjat. Sudlanuvchi yoki mahkum haqida ma'lumot hamda hukmda belgilangan qilmishning jinoyat ekanligini tasdiqlovchi qonun moddalari matni.

*Uchinchidan,* bir jinoyat uchun ikki marta jazo tayinlanishiga (ne bis in idem) yo'l qo'ymaslik va adolatni ta'minlash maqsadida mahkumning avval o'tagan jazo muddati inobatga olinadi. Shuningdek, ishtirokchi davlat sudi tomonidan xorijiy davlat sudi hukmini tan olish va ijro etish to'g'risida qaror qabul qilishda o'z milliy qonunchiligida belgilangan qoidalarni inobatga olgan holda, bunday qilmish uchun tayinlanadigan jazoni belgilaydi.

*To'rtinchidan,* agar ishtirokchi davlat qonunchiligida ushbu qilmish uchun belgilangan eng yuqori jazo hukmda ko'rsatilganidan kam bo'lsa, sud qonunchilikda nazarda tutilgan maksimal jazoni belgilaydi.

**Xulosalar**

Xorijiy davlat sud hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish masalasi bugungi globallashuv sharoitida xalqaro huquqiy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanishi kuzatilmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, jinoiy ishlar bo'yicha xorijiy davlat sud hukm (qaror)larini tan olish va ijro etishga doir davlatlararo munosabatlarni tartibga solishda universal xalqaro shartnomalar daromad, mol-mulk va boshqa materiallarni musodara qilish bo'yicha umumiy majburiyatlarni belgilovchi normalarni o'zida aks ettirgan. Biroq ushbu shartnomalar aniq protsessual qoidalarni nazarda tutmagani sababli ularni qo'llashda, asosan, ish-

tirokchi davlatlarning milliy qonunchiligiga tayaniladi.

Mintaqaviy shartnomalar, xususan, Minsk va Kishinev konvensiyalarida jinoyat sudlari tomonidan chiqarilgan hukm (qaror)larni tan olish va ijro etish to'g'risidagi qoidalar hamda ularga qo'yiladigan talablar belgilangan. Kishinev konvensiyasi avvalgi hujjatlardagi kamchiliklarni bartaraf etgan holda, jarima, zararlarni qoplash va musodara bo'yicha davlatlar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarni o'zida aks ettirgan.

Ikki tomonlama xalqaro shartnomalar, odatda, ma'lum bir sohaga yo'naltirilganligi va hududiy ta'sir doirasining chegaralanganligi bilan ajralib turadi. Xorijiy davlat sud hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish bo'yicha mintaqaviy hamda ikki tomonlama shartnomalarning universal xalqaro shartnomalardan o'ziga xos jihati shundaki, ular mazkur jarayonni tartibga soluvchi protsessual qoidalarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi yuqorida sanab o'tilgan bir qator xalqaro shartnomalarning ishtirokchisi ekanligini hisobga olgan holda, xorijiy davlat sudi tomonidan ozodlikdan mahrum qilish yoki tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi qo'llash bo'yicha chiqarilgan qarorlardan tashqari, jinoiy yo'l bilan olingan daromadlar yoki boshqa turdagi jazo choralarini qo'llash bo'yicha xorijiy davlat jinoyat sudlari tomonidan chiqarilgan hukm (qaror)larni tan olish va ijro etishga doir xalqaro huquq normalarini O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida aks ettirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, universal, mintaqaviy hamda ikki tomonlama shartnomalar xorijiy davlat sudlari hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish bo'yicha davlatlararo munosabatlarni tartibga solish uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi. Bunday huquqiy asoslar nafaqat davlatlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash, balki inson huquqlari va odil sudlovni xalqaro miqyosda ta'minlashga xizmat qiladi.

## REFERENCES


1. World Justice Challenge 2024: The Rule of Law: Foundation of Democracy. Available at: https://worldjusticeproject.org/world-justice-challenge/world-justice-challenge-2024-rule-law-foundation-democracy
2. Aebi M.F., Cocco E., Molnar L. Prisons and Prisoners in Europe 2023: Key Findings of the SPACE I survey. Available at: https://wp.unil.ch/space/files/2024/12/SPACE_I_2023_Key_Findings.pdf
3. WJP Rule of Law Index 2024 Global Press Release, 2024. Available at: https://worldjusticeproject.org/news/wjp-rule-law-index-2024-global-press-release?utm_source=chatgpt.com
4. Marysheva N.I., Shchukin A.I. Inostrannoye sudebnoye resheniye kak ob"yekt priznaniya i privedeniya v ispolneniye v Rossii [Foreign Court Decision as an Object of Recognition and Enforcement in Russia]. *Law. Journal of the Higher School of Economics*, 2020, vol. 2, pp. 45–83.
5. Khabriyeva T.YA. Mezhdunarodnoye sotrudnichestvo v oblasti priznaniya i ispolneniya inostrannykh sudebnykh resheniy [International cooperation in the field of recognition and enforcement of foreign judgments]. *Journal of Russian Law*, 2006, vol. 8(116), pp. 4–6.
6. Tursunov X.M. Xalqaro huquq normalarini sudlarda qo'llash muammolari [Problems of applying international law in courts]. Tashkent, 2011, p. 72.
7. Nizamedinxodjayev U.R. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik [International cooperation in combating crime]. Tashkent, 2020, p. 19.

8. Mirhamidova M.N., Kadirova N.R., Xamdamova Sh.M. Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar toʻgʻrisidagi qonunining qoʻllanilishi [Application of the Law of the Republic of Uzbekistan on International Treaties]. Tashkent, JIDU Publ., 2024, pp. 48, 176.

9. Commentary on the United Nations Convention against Illicit Traffic in Narcotic Drugs and Psychotropic Substances. 1988, pp. 108, 114–115. Available at: https://www.unodc.org/documents/treaties/organized_crime/Drug%20Convention/Commentary_on_the_United_Nations_Convention_1988_R.pdf

10. United Nations Convention against Transnational Organized Crime. Adopted by General Assembly resolution 55/25. 2000. Available at: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/orgcrime.shtml

11. Rose C. Enforcing the 'community interest'in combating transnational crimes: the potential for public interest litigation. *Netherlands International Law Review*, 2022, vol. 69(1), pp. 57–82.

12. Adopted by General Assembly resolution 58/4. United Nations Convention against Corruption, 2003. Available at: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/corruption.shtml

13. Francis D., Delphine S. Asset Recovery in the UNCAC Convention: Possibilities and Limitations. The European Criminal Law Associations' Forum. Available at: https://eucrim.eu/articles/asset-recovery-uncac-convention-possibilities-and-limitations/#docx-to-html-fnref2

14. Volevodz A.G. Pravovoye regulirovaniye deyatel'nosti pravookhranitel'nykh organov gosudarstv romano-germanskoy sistemy kontinental'nogo prava po okazaniyu mezhdunarodnoy pravovoy pomoshchi v rozyske, areste i konfiskatsii denezhnykh sredstv i imushchestva, poluchennykh prestupnym putyom [Legal regulation of the activities of law enforcement agencies of states of the Romano-Germanic system of continental law in providing international legal assistance in the search, seizure and confiscation of funds and property obtained by criminal means]. *FRG Russian Investigator*, 1999, vol. 2, no. 6, pp. 59–64.

15. Urusov A.A. Mezhdunarodno-pravovoye regulirovaniye sotrudnichestva v sfere priznaniya i ispolneniya prigovorov (resheniy) sudov inostrannykh gosudarstv [International legal regulation of cooperation in the field of recognition and enforcement of sentences (decisions) of courts of foreign states]. *Bulletin of the Academy of the Investigative Committee of the Russian Federation*, 2023, vol. 4(38), pp. 193–203. DOI: 10.54217/2588-0136.2023.38.4.024.

16. Criminal code of the Republic of Albania. Available at: https://euralius.eu/index.php/en/library/albanian-legislation?task=download.send&id=11&catid=10&m=0

17. German Criminal Code. Available at: https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html

18. Penal Code. Prepared on the basis of: consolidated text Journal of Laws of 2024. Available at: https://isap.sejm.gov.pl/isap.nsf/download.xsp/WDU19970880553/U/D19970553Lj.pdf

19. Konventsii o pravovoy pomoshchi i pravovykh otnosheniyakh po grazhdanskim, semeynym i ugolovnym delam [Convention on Legal Assistance and Legal Relations in Civil, Family and Criminal Matters]. Minsk, 1993.

20. Volzhenkina V.M. *Primeneniye norm mezhdunarodnogo prava v rossiyskom ugolovnom protsesse* [Application of international law norms in Russian criminal proceedings]. St. Petersburg, 1997, p. 88. Available at: https://www.procuror.spb.ru/izdanija/1997_02_03.pdf

21. Davydova M.V. *Osushchestvleniye vzaimnoy pravovoy pomoshchi po ugolovnym delam* [Implementation of mutual legal assistance in criminal matters]. Irkutsk, Irkutsk Law Institute (branch) of the Academy of the Prosecutor General's Office of the Russian Federation Publ., 2017, p. 18.

22. Fayziyev F.M. Mezhdunarodno-pravovoye regulirovaniye otnosheniy mezhdu gosudarstvami po okazaniyu pravovoy pomoshchi [International legal regulation of relations between states on the provision of legal assistance]. Tashkent, 2007, p. 23.

23. Panyushkina O.V. Mezhdunarodno-pravovyye normy, reguliruyushchiye priznaniye i ispolneniye prigovorov inostrannykh sudov [International legal norms governing the recognition

and enforcement of foreign judgments]. *Bulletin of Voronezh State University, Series: Law*, 2008, vol. 1, pp. 344–354.

24. Konventsii o pravovoy pomoshchi i pravovykh otnosheniyakh po grazhdanskim, semeynym i ugolovnym delam [Convention on Legal Assistance and Legal Relations in Civil, Family and Criminal Matters]. Kishinev, 2002.

25. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni jazoni oʻtashni davom ettirish uchun oʻtkazish toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasi va Ozarbayjon Respublikasi oʻrtasidagi shartnoma [Agreement between the Republic of Uzbekistan and the Republic of Azerbaijan on the transfer of persons deprived of their liberty to continue serving their sentences]. 1997.

26. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni jazoni oʻtashni davom ettirish uchun topshirish toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasi bilan Qozogʻiston Respublikasi oʻrtasidagi shartnoma [Agreement between the Republic of Uzbekistan and the Republic of Kazakhstan on the transfer of persons deprived of their liberty for the purpose of continuing to serve their sentence]. 2021.

27. Oʻzbekiston Respublikasi va Qozogʻiston Respublikasi oʻrtasida Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar boʻyicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar toʻgʻrisidagi shartnoma [Agreement between the Republic of Uzbekistan and the Republic of Kazakhstan on legal assistance and legal relations in civil, family and criminal matters]. Almata, 1997.

28. Oʻzbekiston Respublikasi bilan Chexiya Respublikasi oʻrtasida Fuqarolik va jinoiy ishlar boʻyicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar toʻgʻrisidagi shartnoma [Agreement between the Republic of Uzbekistan and the Czech Republic on legal assistance and legal relations in civil and criminal matters]. Tashkent, 2002.

29. Lukashuk I.I. Normy mezhdunarodnogo prava v pravovoy sisteme Rossii [Norms of international law in the legal system of Russia]. Moscow, Spark Publ., 1997, p. 10.

30. Karolin F.G., Kuyus L. Primeneniye mezhdunarodnogo prava sudami Germanii [Application of international law by German courts]. *Comparative Constitutional Review*, 2017, vol. 6(121), pp. 78–86.

31. Yuldasheva G. Xalqaro huquq normalarining Oʻzbekiston Respublikasi sud tizimi tomonidan qoʻllanilishi [Application of international law by the judicial system of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, TSIL Publ., 2004, p. 15.

# YURISPRUDENSIYA

## HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL 3-SON

VOLUME 5 / ISSUE 3 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.3.